XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI UZUN TUMANI KENGASHINING QARORI

Uzuntumani,O‘zbekistonko‘chasi 7-uy. tel.: (+99876)44-73-545, uzun.t@exat.uz

2023 - yil 21 - noyabr VI-65-121-8-118-K/23 Uzun tuman hokimligi

Xalq deputatlari Uzun tuman Kengashining 2023 yil 21-fevraldagi “Uzun tuman mahalliy budjetining 2023-yil shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida”gi VI-54-21-8-118-K/23-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 5-yanvardagi 02/1-3291-sonli “asosiy vositalarni xarid qilish hamda bino va inshoatlarni ta’mirlash bilan bog‘liq xarajatlarini budjet va budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan amalga oshirish vaqtincha to‘xtatib turilishi to‘g‘risidagi” ko‘rsatmasi hamda tuman hokimining 1-o‘rinbosari B.Xasanovning 2023-yil 3-noyabrdagi 02-23/107-sonli xati, O‘zbekiston Respublikasining 2022 yil 20 dekabrdagi “2023 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-813-son Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksiga muvofiq “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Uzun tumani Kengashi **qaror qiladi:**

1. Tumani hokimining 1-o‘rinbosari B.Xasanovning 2023-yil 3-noyabrdagi 02-23/107-sonli xati ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Uzun tuman Kengashining 2023 yil 21-fevraldagi “Uzun tuman mahalliy budjetining 2023-yil shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida”gi VI-54-21-8-118-K/23-son qarorining 4.9,4.14 va 4.15 bandlariga quyidagi o‘zgartirishlarni kiritsin:

- 4-band 9-xatboshi bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 14-dekabrdagi "Pochta aloqasi xizmatlarini ko‘rsatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-4921-sonli Qaroriga asosan Uzun tuman Pochta bo‘limini joriy ta’mirlashdan yuzaga kelgan qarzdorlikni qoplash maqsadida **50 mln.** so‘m mablag‘ jumlasi-O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 14-dekabrdagi "Pochta aloqasi xizmatlarini ko‘rsatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-4921-sonli Qaroriga asosan Uzun tuman Pochta bo‘limini joriy ta’mirlashga qurilish mollari sotib olish uchun **50 mln.** so‘m mablag‘ jumlasiga,

- 4-band 14-xat boshi bilan Uzun tuman hokimligini xarid qilgan mebel jihozlardan yuzaga kelgan qarzdorlikni qoplash maqsadida **30 mln.** so‘m mablag‘ jumlasi Uzun tuman hokimligining xarid qilgan mebel jihozlarini ta’mirlash xarajatlariga **30 mln.** so‘m mablag‘ jumlasiga,

- 4-band 15-xatboshi bilan Uzun tuman hokimligining joriy ta’mirlash xarajatlari uchun **30 mln.** so‘m mablag‘ jumlasi Uzun tuman hokimligining joriy ta’mirlash xarajatlari uchun qurilish mollari sotib olish uchun **30 mln.** so‘m mablag‘ jumlasiga o‘zgartirilsin.

3. Qarorning qolgan qismi o'zgarishsiz qoldirilsin.

4. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Uzun tuman Kengashining mahalliy

budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi A.Bakiyevning zimmasiga yuklatilsin.

5. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi **Sherdonaqulovich B. X.**